

GAZLAMA ISHLAB CHIQRISHDAGI TABIIY XOMASHYO MANBALARINING TASNIFI

Ibragimov Otabek Ergashboy o'g'li

Guliston Davlat Universiteti, Ishlab chiqarish fakulteti

Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi

(ishlab chiqarish turlari bo'yicha) texnologiyasi yo'nalishi

2- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola gazlama ishlab chiqarish sohasida qo'llaniladigan xomashyolarning tasniflanishiga bag'irlanadi. Maqolada eng muhim bo'lgan ayrim xomashyo manbalari ko'rib chiqiladi hamda muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: xomashyo, paxta, jun, zig'ir tola, manba.

KIRISH

To'qimachilik sanoati asosan, paxta, jun va zig'ir tolalarini o'z ichiga oluvchi Xomashyo bazasi asosida ish olib boradi. O'zbekiston to'qimachilik va yengil sanoatida tabiiy tolalardan tashqari sun'iy kimyoviy tolalar ham qo'llaniladi. Turli xil tolalardan tayyorlangan gazlamalar muvofiq ravishda, turli fizik-mexanik xususiyatlarga va iste'molga oid o'z bahosiga egadir. Shuningdek, bunday gazlamalarga bezak berish, tashish va saqlash uning tolaviy tarkibiga ko'ra farq qiladi.

To'qimachilik sanoati asosan paxta, jun va zig'ir tolalarini o'z ichiga olgan Xomashyo bazasi asosida ish olibboradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Paxta. O'zbekistonda iqlim sharoitidan kelib chiqib faqat paxta, zig'ir yetishtirilmoqda. Paxta - tarqalishi jihatdan chegaralangan hududga ega bo'lganekindir. U faqat o'rta Osiyo respublikalarida, janubda Qozog'iston va Ozarbayjonda, ya'ni havo harorati 140-160 kun mobaynida selsiy shkalasi bo'yicha 10 darajadan yuqori bo'lgan, harorat yig'indisi esa, bu davr mobaynida 3500-4000 darajani tashkil etadigan hududlarda yetishtiriladi¹.

Go'za – yetarlicha issiqlik, yorug'lik, suv va yuqori darajada qo'l mehnati talab qiladigan quruq subtropik ekindir.

Paxta yetishtirishni rivojlantirish tendensiyalari. Sobiq SSSRda paxta yetishtirishga haddan ziyod qiziqish natijasida o'rta Osiyo respublikalarida, xususan, o'zbekistonda yakka ekin dehqonchiligi tashkil etildi. Boshqa kerakli ekinlarni ekishni

¹ Julie Cole, Sharon Czachor. Professional Sewing Techniques for Designers//Angliya, 2014

qisqartirilishi va tugatilishi bu respublikalarni juda o`gir ahvolga solib qo`ydi. Hozirda qishloq xo`jaligi ekinlarini ekish strukturasi almashtirilmoqda, bu esaishlab chiqarishni qisqartirishga olib kelmoqda.

Zig`ir. Ikkinchi ommaviy qimmatbaho ekin bu – uzun tolali zig`irpoya bo`lib, undan o`ta pishiqligi va qayishqoqligi, tovlanib turishi va namlik sig`imlari bilan farqlanib turuvchi tola olinadi. Zigir – yuqori havo namligiga ega bo`lgan o`rtacha iqlim mintaqaga xos bo`lgan ekindir.

Jun. Chorvachilik (Qo`ychilik) quruq yarim cho`l va cho`llardagi tabiiy yemish asosida rivoj topgan. Iqlim qanchalik quruq bo`lsa qo`y junlari shuncha yaxshi va sifatli bo`ladi.

Bizning davrimizda tabiiy o`simlik va hayvonlarga xos tolalardan tashqari kimyoviy tolalar ham qo`llanilmoqda.

Tabiiy to`qimachilik tolalari. Tolalar – polimerlar deb ataluvchi yuqori molekulyar birikmalarga kiruvchi moddalardan tuzilgan. Tabiatda uchraydigan moddalardan polimerlarga, masalan, selluloza – o`simlik tolasining asosiy qismi, keratin va fibroin – asosiy oqsil moddalar kiradi, jun va ipak shulardan tashkil topgan².

Paxta - muhim tabiiy to`qimachilik tolasidir. U paxta urug`laridagi tukchalardir. Paxta tozalash zavodlarida paxta tolalari bilan qoplangan katta miqdordagi paxta urug`idan iborat paxta xomashyosi terimda unga tushgan o`simlik aralashmalaridan (barglar, cho`plar) tozalanadi, so`ngra tolni ajratib oluvchi maxsus mashinalarda tola urug`dan ajratiladi. Shundan so`ng tolalar dasta qilib presslanadi.

Paxta tolasining uzunligi har xil – 10.3 mm dan 60 mm gacha bo`ladi. Paxta tolasini ingichka, ammo juda mustahkam. U arzon va yaxshi bo`yaladi. Paxtadan – ingichka bir tekis va mustahkam ipak olinadi va undan turli xildagi matolar – yupqa batis va markizetdan tortib, yo`g`on matolargacha tayyorlanadi.

To`qimachilik tolalari, shuningdek o`simlikning bargidan va poya qismidan ham olinadi. Bunday tolalar bargli va poyali deb ataladi. Ular ingichka (zig`ir) va dag`al bo`ladi. Ingichka tolalardan turli xildagi matolar, dagal tolalardan - arqon va kanoplar tayyorlanadi.

Jun insonlarga qadimdan ma`lum. Junni asosan (95 % gacha) qo`ylardan olinadi. o`zining ahamiyatiga ko`ra iqtisodiyot uchun jun paxtadan keyin ikkinchi o`rinda turadi. Uni nihoyatda qimmatli xususiyatlari ko`p: u yengil, issiqlikni yaxshi o`tkazmaydi va namlikni o`ziga yaxshi tortadi³.

² Серова Т.М., Афанасьева А.И., Илларионова Т.И., Дель Р.А. Современные формы и методы проектирования швейного производства: Учебное пособие. - М.: МГУДТ, 2014. -283с.

³ Мурыгин В.Е., Чаленко Е.А. Основы функционирования технологических процессов швейных производства. - М.: Компания Спутник, 2011.

Qo`ylarni yungini yiliga bir marta – bahorda (bunda yung sidirg`a qilib olinadi), yoki ikki marta – bahorda va kuzda olinadi. Kuzgi yung qirqishda yung tutamalar ko`rinishida olinadi.

Tabiiy ipak quyidagicha olinadi: kapalak qurtini keyinchalik kapalak bo`lishi uchun g`umbakka aylanish vaqti kelganda u o`zidan ingichka tola chiqara boshlaydi, uni quruq shoxga yopishtiradi va bu toladan o`ziga qobiq – uya – pilla to`qiydi. Pillaning bunday ingichka tolasidan ipak olinadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Ipak, aniqroq qilib aytganda ipak tolasini – ipak qurti pillasidan olinadigan mahsulotdir. Pilla tolasini tarkibi oqsil modda – fibroin (og`irligi bo`yicha 70 – 80%) hamda yopishqoq oqsil modda – siretin (20 – 30%) lardan tashkil topgan ikkita elementar toladan iborat.

Ipak – o`zining ingichkaligi (20 -20 mkm, elementar tolasini esa 10-20 mkm); yuqori gigroskopikligi (normal sharoitda 11 %), yoqimli tovlanishi, uzulishiga ko`ra yuqori darajada mustahkamligi (pilla tolasining nisbiy mustahkamligi 26- 28 ch/teks; uzulish cho`ziluvchanligi 14-18 %) bo`yicha ajralib turadigan qimmatbaho to`qimachilik ipidir.

Ipak ishqorlar ta`siriga chidamsiz bo`lib, moddiy organik eritmalarda erimaydi, yorug`lik ta`siriga chidamsiz: 200 soatga yorug`lik ta`sirida qoldirilganda mustahkamligini yarim barobarga yo`qotadi. Ipak tolasining uzunligi pilladan yigirganda 1200 metrni tashkil etadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Мурыгин В.Е., Чаленко Е.А. Основы функционирования технологических процессов швейных производства. - М.: Компания Спутник, 2011.
2. Arindam Basu. Advances in Silk Science and Technology// England 2015.
3. Grace I. Kunz. Apparel Manufacturing: Sewn Product Analysis//Amerika 2014. PrenticeHall, english.
4. Julie Cole, Sharon Czachor. Professional Sewing Techniques for Designers// Angliya, 2014.
5. Жабборова М.Ш. –Тикувчилик технологияси|| -Т.: –Ўқитувчи||, 2014.
6. Серова Т.М., Афанасьева А.И., Илларионова Т.И., Делль Р.А. Современные формы и методы проектирования швейного производства: Учебное пособие. - М.: МГУДТ, 2014. -283с.